



ISSN: 2181-0796

DOI: 10.26739/2181-0796

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

**TIL, TA'LIM, TARJIMA  
XALQARO JURNALI**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ  
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД**

**INTERNATIONAL JOURNAL OF  
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION**



**Alisher Navoi**

**VOLUME 4  
ISSUE 1**

**2023**



# **TIL, TA'LIM, TARJIMA**

1-SON, 4-JILD

---

# **ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД**

НОМЕР-1, ВЫПУСК-4

---

# **LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION**

VOLUME-4, ISSUE-1



# TIL, TA'LIM, TARJIMA XALQARO JURNALI

1-SON,(2023) DOI <https://zenodo.org/record/8379866>

## Bosh muharrir:

**Mirzayev Ibodulla**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)

## Bosh muharrir o'rinbosari:

**Ismoilov Salohiddin**  
f.f.n., professor (O'zbekiston)

### TAHRIR HAY'ATI:

<b>Boqiyeva Gulandom</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Bakirov Poyon</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)
<b>Dadaboyev Hamidulla</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Pardayev Azamat</b> f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
<b>Yo'ldoshev Qozoqboy</b> p.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Xayrullayev Xurshid</b> f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
<b>Rasulov Ravshanxo'ja</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Kiselyov Dmitriy</b> f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
<b>Mamatov Abdi</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Labib Said Mohammad Alem</b> f.f.d., dotsent (Afg'oniston)
<b>Safarov Shahriyor</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Mirzayev Rahmatulla</b> yu.f.n., dotsent (O'zbekiston)
<b>Shahobiddinova Shohida</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Sobirov Anvar</b> PhD (O'zbekiston)
<b>Qulmamatov Do'smamat</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Nadim Mohammad Humoyun</b> PhD (Afg'oniston)
<b>Mirzohidova Muyassar</b> f.f.d., professor (Qirg'iziston)	<b>Ubaydullayeva Maftuna</b> PhD (O'zbekiston)
<b>Uluqov Nosirjon</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Isakova Nodira</b> f.f.n. (O'zbekiston)
<b>Eltazarov Jo'liboy</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Qodirova Barno</b> kotib, PhD (O'zbekiston)
<b>Umurqulov Bekpo'lat</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Xasanov Axmad</b> mas'ul kotib, (O'zbekiston)

### ILMIY MASLAHAT KEMGASHI:

<b>To'xtasinov Ilhom</b> p.f.d. (O'zbekiston)	<b>Karimov Suyun</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)
<b>Raximov G'anisher</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Mo'minov Siddiq</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)
<b>Saidov Sa'no</b> f.f.n., dotsent (Uzbekistan)	<b>Mamatov Abdug'ofur</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)
<b>Baqoyeva Muhabbat</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Suvonova Nigorabonu</b> f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
<b>Turniyozov Ne'mat</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Mukhametkaliyeva Gulnar</b> f.f.n. (Qozog'iston)
<b>Irisqulov Muhammadavaz</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Saidov Sa'no</b> f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
<b>Berdaliyev Abduvali</b> f.f.d., professor (Tojikiston)	
<b>Sayfullayeva Ra'no</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	
<b>Djusupov Maxanbat</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	
<b>Jabborov Xo'jamurod</b> f.f.d., dotsent (O'zbekiston)	
<b>Abdiyev Murodqosim</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	
<b>Yoqubov Jamoliddin</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	

**Sahifalovchi:** Shakhram Fayziev

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.  
Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)  
Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz) Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)  
Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz) Тел: (+998-94) 404-0000

# МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД

НОМЕР-1, (2023) DOI <https://zenodo.org/record/8379866>

**Главный редактор:**

**Мирзаев Ибадулла**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Заместитель главного редактора:**

**Исмаилов Салахиддин**  
к.ф.н., доцент (Узбекистан)

## РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

<b>Бакиева Гуландом</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Бакиров Поён</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)
<b>Дадабаев Хамидулла</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Пардаев Азамат</b> д.ф.н., доцент (Узбекистан)
<b>Йулдашев Казакбай</b> д.п.н., профессор (Узбекистан)	<b>Хайруллаев Хуршид</b> д.ф.н., доцент (Узбекистан)
<b>Расулов Равшанхужа</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Киселев Дмитрий</b> д.ф.н., доцент (Узбекистан)
<b>Маматов Абди</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Лабиб Саид Моҳаммад Алем</b> д.ф.н., доцент (Афганистон)
<b>Сафаров Шахриёр</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Мирзаев Раҳматулла</b> д.ю.н., доцент (Узбекистан)
<b>Шахабиддинова Шахида</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Собиров Анвар</b> PhD (Узбекистан)
<b>Кулмаматов Дусмамат</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Надим Моҳаммад Хумоюн</b> PhD (Афганистон)
<b>Мирзахидова Муяссар</b> д.ф.н., профессор (Киргизистан)	<b>Убайдуллаева Мафтуна</b> PhD (Узбекистан)
<b>Улуков Насиржан</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Исакова Нодира</b> д.ф.н. (Узбекистан)
<b>Элгазаров Жулибай</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Кадирова Барно</b> секретарь, PhD (Узбекистан)
<b>Умуркулов Бекпулат</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Хасанов Ахмад</b> отв. секретарь (Узбекистан)

## НАУЧНЫЙ СОВЕТ:

<b>Тухтасинов Илхам</b> д.п.н., профессор (Узбекистан)	<b>Каримов Суюн</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)
<b>Рахимов Ганишер</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Муминов Сиддик</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)
<b>Саидов Саъно</b> к.ф.н., доцент (Узбекистан)	<b>Маматов Абдугафур</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)
<b>Бакоева Мухаббат</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Сувонова Нигорабону</b> к.ф.н., доцент (Узбекистан)
<b>Турниязов Нетьмат</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Мукхаметкалиева Гульнар</b> к.ф.н. (Казакстан)
<b>Ирискулов Мухаммадаваз</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
<b>Бердалиев Абдували</b> д.ф.н., профессор (Таджикистан)	
<b>Сайфуллаева Раъно</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
<b>Джусупов Маханбат</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
<b>Жаббаров Хужамурад</b> д.ф.н., доцент (Узбекистан)	
<b>Абдиев Муралкасим</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
<b>Якубов Жамалиддин</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	

**Вёрстка:** Шахрам Файзиев

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.  
Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)  
Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz) Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)  
Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz) Тел: (+998-94) 404-0000

# INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

ISSUE-1 (2023) DOI <https://zenodo.org/record/8379866>

## Chief Editor:

**Mirzaev Ibodulla**  
Doc. of philol. scien.,  
prof. (Uzbekistan)

## Deputy Chief Editor:

**Ismailov Salokhiddin**  
Cand. of phil. sciences, assistant  
professor (Uzbekistan)

### EDITORIAL BOARD:

**Bakieva Gulandom**  
Doc. of phil. scien., prof.  
(Uzbekistan)

**Dadaboev Khamidulla**  
Doc. of phil. scien., prof.  
(Uzbekistan)

**Yuldashev Kazakbay**  
Doc. of ped. scien., prof.  
(Uzbekistan)

**Rasulov Ravshankhuja**  
Doc. of phil. scien., prof.  
(Uzbekistan)

**Mamatov Abdi**  
Doc. of phil. scien., prof.  
(Uzbekistan)

**Safarov Shakhriyor**  
Doc. of phil. scien., prof.  
(Uzbekistan)

**Shakhobiddinova Shokhida**  
Doc. of phil. scien., prof.  
(Uzbekistan)

**Kulmamatov Dushmanat**  
Doc. of phil. scien., prof.  
(Uzbekistan)

**Mirzokhidova Muyassar**  
Doc. of phil. scien., prof.  
(Kirghizistan)

**Ulukov Nosirjon**  
Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

**Eltazarov Juliboy**  
Doc. of phil. scien., prof.  
(Uzbekistan)

**Umurkulov Bekpulat**  
Doc. of phil. scien., prof.  
(Uzbekistan)

**Bakirov Poyon**  
Doc. of phil. scien., prof.  
(Uzbekistan)

**Pardaev Azamat**  
Doc. of phil. scien., assoc. prof.  
(Uzbekistan)

**Khayrullaev Khurshid**  
Doc. of phil. scien., assoc. prof.  
(Uzbekistan)

**Kiselyov Dmitriy**  
Doc. of phil. scien., assoc. prof.  
(Uzbekistan)

**Habib Said Mohammad Alem**  
doc. of phil. scien.  
(Afg'oniston)

**Mirzaev Rahmatulla**  
Doc. of jurispr. scien., assoc. prof.  
(Uzbekistan)

**Sobirov Anvar**  
PhD  
(Uzbekistan)

**Nadim Mohammad Humoyun**  
PhD  
(Afg'oniston)

**Ubaydullayeva Maftuna**  
PhD  
(Uzbekistan)

**Isakova Nodira**  
Doc. of phil. scien.  
(Uzbekistan)

**Kadirova Barno**  
Secretary, PhD  
(Uzbekistan)

**Hasanov Ahmad**  
senior secretary  
(Uzbekistan)

### SCIENTIFIC ADVISORY COUNCIL:

**Tukhtasinov Ilhom**  
doc. of ped. scien.  
(Uzbekistan)

**Rakhimov Ganisher**  
Doc. of phil. scien., prof.  
(Uzbekistan)

**Saidov Sano**  
Cand. of phil. sciences, assoc. prof.  
(Uzbekistan)

**Bakaeva Mukhabbat**  
Doc. of phil. scien., prof.  
(Uzbekistan)

**Turniyazov Nemat**  
Doc. of phil. scien., prof.  
(Uzbekistan)

**Iriskulov Mukhammadavaz**  
Doc. of phil. scien., prof.  
(Uzbekistan)

**Berdaliev Abduvali**  
Doc. of phil. scien., prof.  
(Tajikistan)

**Sayfullaeva Rano**  
Doc. of phil. scien., prof.  
(Uzbekistan)

**Djusupov Makhanbat**  
Doc. of phil. scien., prof.  
(Uzbekistan)

**Jabborov Khojamurod**  
Doc. of phil. scien., assoc. prof.  
(Uzbekistan)

**Abdiev Murodkosim**  
Doc. of phil. scien., prof.  
(Uzbekistan)

**Yakubov Jamoliddin**  
Doc. of phil. scien., prof.  
(Uzbekistan)

**Karimov Suyun**  
Doc. of phil. scien., prof.  
(Uzbekistan)

**Muminov Siddik**  
Doc. of phil. scien., prof.  
(Uzbekistan)

**Mamatov Abdugafur**  
Doc. of phil. scien., prof.  
(Uzbekistan)

**Suvonova Nigorabonu**  
Cand. of phil. sciences, assoc. prof.  
(Uzbekistan)

**Mukhametkaliyeva Gulnar**  
Cand. of phil. sciences  
(Kazakhstan)

**Pagemaker:** Shakhram Fayziev

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.

Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)

Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz) Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)

Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz) Тел: (+998-94) 404-0000

# MUNDARIJA\СОДЕРЖАНИЕ\CONTENT

---

## T I L S H U N O S L I K

<b>1.Ш.Ш. Жалмаханов, Ш.К. Жаркынбекова, Б.И. Кодирова.</b> ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕЙ ЛЕКСИКИ КАЗАХСКОГО И ТУВИНСКОГО ЯЗЫКОВ В СРАВНИТЕЛЬНОМ АСПЕКТЕ.....	7
<b>2.Rashidova U.</b> FRAZEOLOGIZMLAR SHAKLLANISHINING LISONIY OMILLARI.....	21
<b>3.Maxammadiyev X.</b> ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SINTAKTIK USUL BILAN YASALGAN MAISHIY LEKSEMALAR.....	29
<b>4.Usmanov F.</b> ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA LINGVOMADANIY KONTSEPT VA QADRIYAT MUAMMOSI.....	35
<b>5.Anorqulova O.</b> KONSEPT VA KONSEPTOLOGIYA KOGNITIV TILSHUNOSLIKNING AJRALMAS QISMI SIFATIDA.....	44
<b>6.Musulmonova K.</b> SHAXSNI OBRO'SIZLANTIRISH MAZMUNLI MATNLARNI LINGVISTIK EKSPERTIZA QILISHNING QONUNIY METODOLOGIK ASOSLARI.....	52
<b>7.Kurbanazarova N.</b> O'ZBEK TILIDA MUQOBILSIZ LEKSIKA VA UNING TURLARI.....	59
<b>8.Sariyev Sh.</b> KULOLCHILIK TERMINLARINING KO'P MA'NOLILIKKA MUNOSABATI.....	67
<b>9.Dautova M.</b> MODA SOHASIDA AMAL QILADIGAN NEOLOGIZMLARNING NOMINATIV TAVSIFI.....	76

## T A' L I M S H U N O S L I K

<b>10.Ubaydullayev N.</b> BIOGRAFIK METODNING MOHIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	87
<b>11.Raxmatova D.</b> SAIDRIZO ALIZODANING TIL TA'LIMI HAQIDAGI QARASHLARI.....	97
<b>12.Ibrohimova O.</b> XALQARO INGLIZ TILI O'QITISH DASTURLARI VA ULARNING UMUMIY VA FARQLI JIHATLARI.....	105

## T A R J I M A S H U N O S L I K

<b>13.Kuvanova Sh.</b> FRANS KAFKA ASARLARI TARJIMASIDAGI YOLG'IZLIKKA MAHKUM INSON OBRAZINING TALQINI VA TASAVVURIDAGI DUNYO KARTINASI.....	114
<b>14.Панжиева Н</b> КОГНИТИВНО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ АНТИТЕЗЫ В РОМАНЕ У.С.МОЭМА "THE MOON AND SIXPENGE" (НА МАТЕРИАЛЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА).....	122

# ТИЛ, ТАЪЛИМ, ТАРЖИМА ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

## TARJIMASHUNOSLIK

**Kuvanova Shahnoza**  
Katta o'qituvchi  
Qarshi davlat universiteti  
Qarshi, O'zbekiston  
kuvanova\_7576@list.ru

### FRANS KAFKA ASARLARI TARJIMASIDAGI YOLG'IZLIKKA MAHKUM INSON OBRAZINING TALQINI VA TASAVVURIDAGI DUNYO KARTINASI

 <https://zenodo.org/record/8379720>

#### ANNOTATSIYA

Kafka asarlari tarjimasidagi Inson obrazi yolg'izlikka mahkum qilingan. Uning xususiyatlarini tarjimonlar yozuvchining har asarida alohida aks ettirishga harakat qiladi, bu ayniqsa, yozuvchining hikoyalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Kafka ijodining tarjimalarida Dunyo kartinasi absurdizm yordamida tasvirlanadi, adib dunyosida adabiyot ortiq haqiqatni realistik uslubda tasvirlamaydi. Bu tasvirlar tarjimada xuddi shunday aks etadi. Kafka olamidagi Inson obrazi va Dunyo qiyofasini qabul qilishiga doir fikrlarning ildizlari tadqiqotchilarni tag'in adibning olis bolaligi tomon etaklaydi va yana yozuvchining otasi bilan bo'lgan munosabatlariga duch kelasiz. Kafkaning otasi o'g'lidan Dunyoga o'zining nigohi bilan qarashga majburlardi, u o'rnatgan cheklovlarga hamisha adib yon berardi. Ushbu maqolada Frans Kafka asarlari tarjimasidagi yolg'izlikka mahkum Inson obrazining talqini va tasavvuridagi Dunyo kartinasi keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Inson, obraz, asarlar, tarjima, yolg'izlik, hikoya, ijod, Dunyo kartinasi, adabiyot.

**Kuvanova Shakhnoza,**  
Senior teacher  
Karshi State University  
Karshi, Uzbekistan  
kuvanova\_7576@list.ru

## **AN INTERPRETATION OF THE IMAGE OF A MAN CONDEMNED TO LONELINESS IN THE TRANSLATION OF FRANZ KAFKA'S WORKS AND A PICTURE OF THE WORLD IN HIS IMAGINATION**

### **ABSTRACT**

The image of Man in the translation of Kafka works is devoted to loneliness. Its features are clearly visible in the writer's stories. In the translations of Kafka's work, the picture of the worlds is depicted using absurd, in the world of writers, literature does not describe reality in an artistic, realistic manner. These images are reflected in the translation as well. The roots of Kafka's ideas about the human image and acceptance of the world's beauty will lead researchers to the writer's distant childhood? and they will come across the writers relationship with his father. Kafka's father forced his son to look at the world with his eyes? he always gave way to the restrictions he set. In this article, the interpretation of the human image of loneliness in the translation of Franz Kafka's works and the picture of the world in his imagination are widely covered.

**Keywords:** Man, image, translation, work, devoted, loneliness, story, work, the picture of the worlds, literature.

**Куванова Шахноза**  
Старший преподаватель  
Каршинского государственного университета,  
Карши, Узбекистан  
kuvanova\_7576@list.ru

## **ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ЧЕЛОВЕКА, ОБРЕЧЕННОГО НА ОДИНОЧЕСТВО, В ПЕРЕВОДЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ФРАНЦА КАФКИ И КАРТИНА МИРА В ЕГО ВООБРАЖЕНИИ**

### **АННОТАЦИЯ**

Образ человека в переводах произведений Кафки посвящена одиночеству. Его черты хорошо видны в рассказах писателя. В переводах творчества Кафки картина мира изображается с помощью абсурдизма в мире писателей, литература не описывает действительность в художественной, реалистической манере. Эти образы нашли отражение и в переводе. Корни представлений Кафки о человеческом образе и восприятии красоты мира увлекает исследователей в далекое детство писателя, они натолкнутся на отношения писателя с отцом. Отец Кафки заставлял сына смотреть на мир его глазами, он всегда уступал установленным им ограничениям. В данной статье широко освещается интерпретация человеческого образа одиночества в переводах произведений Франца Кафки и картина мира в его воображении.

**Ключевые слова:** Образ, человек, перевод, произведения, одиночества, рассказ, творчества, картина мира, литература.



Kirish. XX asr adabiyoti tarakkiyotini yangi yo'nalishga solib yuborgan, inson va uning umriga o'zgacha munosabatni qaror toptirgan Frans Kafkani dunyodagi eng g'aroyib va tushunarsiz takdir egasi bo'lgan ijodkor-yozuvchi deyish mumkin. Shaxsiyati, hayoti va ijodiy qismati hanuzga qadar ko'pchilik uchun jumboq bo'lib kelayotgan Frans Kafka 1883 yilning 3-iyulida o'sha paytlar Avstro-Vengriya tarkibida bo'lgan Praga shaxrida savdogar oilasida tavallud topdi. Frans Kafka Pragadagi nemis gimnaziyasini a'lo boholarga tugatdi. U 1901-1905 yillarda otasining xohishiga binoan Pragada Nemis Davlat Univrsitetining Yuridik fakultetida tahsil oldi. Uning talabalik yillari juda mazmunli kechdi. Kafka huquqshunoslikdan tashqari, san'at, tarix, germanistika fanlaridan ma'ruzalarni tingladi. Umuman olganda, Frans Kafka Universitetning ilg'or talabalari safida edi. Mashhur yozuvchilarning asarlarini o'qish uning sevimli mashg'ulotlaridan bo'lgandi.

Yozuvchining "Evrilish" qissasi, "Hukm", "Ochlik ustasi" singari hikoyalari, "Jazo koloniyasida" essesi, "Otamga xat", "Bir kurash tarixi", "Qurilish", "Amerika", "Qo'rg'on" asarlari hozirda jahon adabiyoti miqyosida juda mashhurdir. Kafka asarlari tarjimasidagi Inson obrazi yolg'izlikka mahkum qilinganligi beqiyos tasvirlangan. Uning xususiyatlarini har asarida alohida aks ettirishga harakat qiladi, bu ayniqsa, yozuvchining "Yo'lovchilar" hikoyasi tarjimasida yaqqol ko'zga tashlanadi: "Tunda ko'chalarni aylanib yurganingda, birdaniga olisdan qarshingda biror-bir odam yugurib chiqsa, olisdan yo'lovchining butun shakl-shamoyili ko'zga tashlanadi, bu ko'cha toqqa olib borardi, osmonla to'lin oy, xotirjam tunda qalbingni xavotir egallaydi, uni o'tkazib yuborishni istaysan, kim biladi, ehtimol, betayin bezori bo'lsa, balkim ortidan u-bu kim quvayotgandir yo baqirayotgandir, qaerga qarab yugurayotgan bo'lsa, o'sha joyga yugursin. Axir hozir tun va sening hech qanday aloqang yo'q, oy nur sohib turibdi, ko'cha toqqa olib boradi, balkim ular ikki kishidir, uchinchi odamning ortidan quvayotgandirlar, ehtimol, birinchisi aybdor emasdir va bekordan-bekor uni quvayotgandirlar, balkim ikkinchi odam uni o'ldirmoqchidir va sen qotillikdagi sherik bo'lib qolarsan, ehtimol, ular bir-biridan umuman bexabardir va har kim o'zicha uyiga shoshayotgandir, balkim, ular bor-yo'g'i oyparastdir, ko'chalarda bemaqsad sarson-sargardon izg'ib yurganidan o'zi ham bexabardir, ehtimol, birinchi qurollangan odamdir. Nihoyat, ehtimol, charchab, keragidan ortiq ichib qo'ygan bo'lishing mumkin va ikkinchi yo'lovchi ko'zdan yo'qolganiga quvonayotgandirsan".

Bu hikoya tarjimasida Inson o'zini-o'zi tashqi olamdan tamoman izolyatsiya qilayotganiga va yolg'izlikka mahkum qilayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Eng asosiy jihati shundaki, yozuvchi inson tirikligining har qanday hayotiy holat oldida qo'rquv tuyg'usi bilan yashagan. Kafka ijodiga qiziqish ancha avval paydo bo'lgan edi va uning ko'pgina asarlarini kuzatishga muvaffaq bo'lganman, menda qiziqish uyg'otgan yana bir xususiyatni e'tirof etishni ma'qul topdim. Kafkaning "Ko'prik" asari syurralistik yo'nalishni yozilgan, uslub jihatidan Salvador Dalini eslatib yuboradi va tarjimada yolg'izlik timsoli yaqqol aks etgan: "Men sovug'u qattiqman, chunki jarlik ustiga qo'yilgan ko'prikman... Hali birorta sayyoh boshi aylanib bu tomonlarga o'tmagan, boisi ko'prik birorta xaritada ko'rsatilgan emas. Shu tariqa men cho'zilib yotardim va kutardim..."

Bu so'zlar istalgan odamning qalbini larzaga soladi. Insoniyat tomonidan unutilgan, hech erda qayd etilmagan, yolg'iz va tashlandiq ko'prik. Bunda shubha yo'qki, bu so'zlar Kafkaning o'zi haqida yozilgan va ruhiyatini oshkor ko'rsatgan, chuqur mohiyatga ega haqiqatdir. Bu, hatto ortiqcha izohlarga muhtoj emas. Hikoyaning oxirlari esa menga yozuvchining boshqa asarlari, ayniqsa, "Jazo koloniyasida"gi ofitserning qismatini eslatadi, yanayam ichkariroqqa nazar tashlasa, Kafkaning taqdirini, va hatto yozuvchi olamidagi butun insoniyat qismatini ko'rsatadi. "... U ikki oyog'i bilan tanamning o'rtasida bir sakradi. Men kuchli va yovvoyi og'riqdan titrab ketdim va tamoman bexabar edim. Kim edi bu? Bolami? Sarobmi? Katta yo'lning qaroqchisidir? Xudkushmikan? Buzg'unchimi? Men uni ko'rish uchun o'girildim... Ko'prik o'girilyapti! O'girilishga ulgurmasimdan mayda-

mayda bo'ldim... ado bo'ldim..." Insonning bu yolg'izligu kimsasizlikdan iborat dunyoda mayda-mayda bo'lib ado bo'lishi uchun birgina burilish kifoya qilishini, Inson mana shunday qismatga mahkum qilinganining tasvirlari tarjimada aks etgan. Eng azoblisi, bu sovuq olamda inson faqat qo'rquv ichra yashab o'tib ketishi muqarrarligini ko'rsatadi. Garchand mazkur hikoyada yozuvchi inson obrazini simvolistik uslubda ko'rsatgan bo'lsa-da, insonga xos iztiroblar tiriklikni anglagan har bir kitobxonda tanish tuyg'ularni uyg'otadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Kafka o'z odatiga ko'ra, syujetni materializmga asoslanib qurishga intilgan. G'aroyib ishoralar, belgilar va timsollar absurd bo'lib tuyulgan syujetni hayot haqiqatiga bog'laydi. Biroq Kafka bu bilan chegaralanib qolmaydi, qahramonlarini mana shu qo'rqinchli tushlar atmosferasiga mahorat bilan joylaydiki, hamma narsa haqiqiy hayotda sodir bo'layotganday taassurot uyg'otadi. Uning bu uslubi real hayotning absurd qiyofasini aks ettirishning yorqin predmeti. Axir yozuvchining tarjimonlari E. Ernazarov tomonidan "Evrilish" novellasi ham, tarjimon Vafo Fayzullo tomonidan tarjima qilingan "Jarayon" romani tarjimalarida real hayotning absurd qiyofasi tarjimonlar tomonidan to'la aks ettirilgan. Uning badiiy asarlari dunyoni bosib kelayotgan fashizm xavfidan ramziy yo'sinda ogohlantiradi. U bu xavf qarshisida qo'rquvga tushadi. Qo'rquvni tarjima orqali tarjimonlar adabiyotga olib kirdilar. Mavjud voqelik oldida oddiy insonning nihoyatda ojiz va haqir holini tarjimonlar juda yorqin obrazlar yordamida tasvirlaydi [1:23].

Frans Kafkaning asarlarini o'qib, inson qismati va voqeasini tasvirlash uchun adib bu rangning har xil turlarini o'ylab topganini payqaymiz, tarjimonlar ham bu inson qismatini aynan o'xshash ranglar orqali tarjimada bera oldilar [3:139]. Ko'plab tarjimashunoslar, adabiyotshunoslar, psixologlar Frans Kafka va unga o'xshash adiblarning asarlarini absurd adabiyot sifatida tadqiq etadilar. Bunday munozaraga o'zbek mutaxassislari ham bosh qo'shishga urinib ko'rishdi. Vaholanki, Frans Kafka absurd adabiyot yaratish xayolida roman yozmagan, u - hayotning o'zini, inson umrining o'zini absurd deb tushungan va bunday xususiyat tarjimonlar tomonidan asarda yorqin ifodalab berildi [4:16].

Kafkaning ijodiga qiziqish yozuvchining o'limidan so'ng boshlandi va bu qiziqish bir qancha dunyo olimlarini o'z atrofiga birlashtirdi. Alal-oqibat adib merosini va yozish uslubini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotganlar ikkiga ajraldilar, bir tomon Frans Kafka inson qarshisida turgan yovuzlikni engib o'tishiga ishonmaydi va o'quvchini ham bunga undamaydi, ya'ni yashashdan yorug'lik ko'rmagan, o'z olamiday Hayotni ham Xaos sanaganu; undan bizga mavhum adabiyot qoldi, deya ta'kidlaydilar [5:118]. Ularning fikricha, Kafkada Shaxs sifatida unda bunday xislat bo'lmagan. U bor-yo'g'i dahshatli tushni ta'birlovchi, yo'l ko'rsatuvchi emas, degan fikrlar ham yangradi.

Adibning og'riqli asarlari tarjimasida ba'zan bugungi zamonaviy olamning qiyofasini ko'rish qiyin emas. Tarjimashunoslarning Kafka asarlaridagi Inson obrazi borasidagi fikrlar hamisha kesishavermaydi va bunga etarlicha arzirli sabablar ham bor. Yozuvchi hech erda o'z mehnatiga biror-bir izoh qoldirmagan. Uning yozganlarini diniy, dunyoviy, siyosiy, mistik nuqtayi nazardan tarjima va tahlil qilish kerak bo'ladi. Ular xuddi mozaikaga o'xshaydi, har tomondan qarasa, turli xil tasvirlarni olish mumkin.

Aksariyat tarjimashunos va adabiyotshunoslar Frans Kafkani nihoyat darajada "o'ziga ishonchi yo'q" yozuvchi sifatida ta'riflaydi. Uning matnlari tarjimalarida "ehtimol", "balkim", "mumkin", degan so'zlar ko'p uchrashini ta'kidlaydilar. Adibning qahramonlari hamisha atrofdagi olam bilan uning haqiqati bilan kurashadilar, o'zlaricha uni tushunishga urinadilar va kategoriyalarga bo'ladilar, biroq mag'lubiyatga, shubhasiz, toqat qiladilar va bu Kafka asarlari tarjimasida o'z ifodasini topgan. Va bu ishonchsizlikning asl mohiyati Frans Kafka shaxsiyatiga tegishli Dunyoning tub-tubida yashiringan bo'lganligi tarjimada aks etadi. Adib Insonning o'z Jamiyati, Zamoni va Makoni orasidagi nizoni tasvirlab bergan,

tarjimonlar esa bu holatni o'z xalqiga taqdim eta olgan, xolos. Maks Brod bu haqida shunday fikr bildiradi: "...Kafkaning yozuvchilik mahorati tufayli inson tirikligining noaniq mohiyati ayon bo'ldi" [7:118]

O'sha davrlarda Insoniyat ijtimoiy-madaniy va siyosiy muqarrar tanazzuliga yaqin turardi, chunki Birinchi Jahon urushining ta'sir doirasi kundan-kunga kengayib borardi. Urushning zulmat, Insonni aql-hushidan ayirishga qodir kuchi, ilm-fan, madaniyat va dinning kafolatlarini qirqishga ulgurgandi. Istalgan mantiqsiz o'ylovsiz harakat ko'priknii vayron etganiday Er yuzidagi butun tiriklikni yakson qilishi turgan gap edi. O'sha davrlarda Dinga tegishli ezgu g'oyalarni shubha ostiga qo'yuvchi Shopengauerning g'oyalari mashhur bo'lgan edi. Olimlar bu Dunyoning mohiyati noaniq va asossiz ekanligini isbotlovchi nazariyalarni ilgari surishardi. Ammo ularning hech biri Dunyoni anglashga yordam beradigan tugal bir g'oya emasdi, aksincha, nihoyasiz savollarni, ehtimollarni, keltirib chiqardi. Modernizm davrining Dunyoni ma'yus qiyofasini qabul qilish qobiliyati Frans Kafkani ham qamrab olgandi. Daniyalik filosof-ekzistentsialist Syoren Kerkegorning g'oyalari XIX asrda ko'pgina yozuvchilar qatori Kafkaga ham ta'sir ko'rsatgandi. U Inson tiriklik mohiyatini to'la anglashga qodir bo'lmagani uchun tirik qolish maqsadida Allohga yuzlanishi aslida bir ehtiyoj ekanligini yozgandi. Frans Kafka asarlari tarjimonlari bu holatni tarjimada rangli buyoqlarda aks ettira olganlar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). "Kafka hali cheksiz diktaturalarning dahshatlari va atom bombalari bu olamning kulini ko'kka sovurishi mumkinligini ko'rsatmasidan burunroq bu olamdan o'tgan edi, ammo u bu dahshatlarni oldindan tuygan va avliyolarga xos kelajakni ko'ra olish tuyg'usi tufayli o'sha azoblarni chuqur his qilgan", deya yozadi Maks Brod o'zining "Frans Kafkaning umidsizligiyu najoti" maqolasida. U qaysidir ma'noda haq edi Dunyo va uning tuzumlarining shafqatsiz qurollari oldida Inson adib tasvirlagani kabi ojiz va Jamiyat uni o'z Makoniyu Zamonining gunohkorga aylantiradi, eng achinarlisi, uning o'zi ham butun umr ular oldida aybdorlik hissi bilan yashaydi va alaloqibat himoyasiz mitti maxluqotga aylanadi. Shu so'zlarimizning bir isboti sifatida "Jarayon" romanidagi bir Inson obrazini olaylik, bosh qahramon Yozef K. hatto aniq bo'lmagan bir jinoyatda ayblanadi, unga shunchaki gunohkorlik yuki bo'yniga ilinadi, xuddi oddiy va tabiiy holatda, vaqt va vaziyat taqozo qilgani uchun Jamiyat uni ana shunday gunohkoriga aylantiradiki, alaloqibat o'zi hukmni kutib yashaydi. Yoxud yana bir Inson obrazi "Qo'rg'on" romani qahramoni er o'lchovchini misol qilib olish mumkin, romandagi vaziyatlar tasvirini chuqur mohiyatiga etishga urinsak, uning chigalu mustahkam byurokratik tuzum oldida naqadar ojiz qolganini, eng qizig'i, uning funktsiyalangan tamoyillarini, hatto Qo'rg'on amaldorlarining o'zlari ham anglashga qodir emasliklarini ko'ramiz. Qilinayotgan ishlar na qishloq aholisiga va Qo'rg'on atrofida aylanib yurganlarga ma'lum. Shunisi aniqki, hammani qo'rquvda tutib turadi va shu qo'rquv tufayli Inson harakatlarini chegaralaydi.

Kafka olamidagi Inson obrazi va Dunyo qiyofasini qabul qilishiga doir fikrlarning ildizlari tadqiqotchilarni tag'in adibning olis bolaligi tomon etaklaydi va yana yozuvchining otasi bilan bo'lgan munosabatlariga duch kelasiz. Kafkaning otasi o'g'lidan Dunyoga o'zining nigohi bilan qarashga majburlardi, u o'rnatgan cheklovlarga hamisha adib yon berardi. Otasi uchun o'zi yomon ko'rgan sug'urta ishida o'n besh yildan ortiq vaqtini sarfladi va bu haqda bir necha marta kundaliklarida ham yozib qoldirgan edi. Ikkisining o'rtasidagi sovuq munosabatlar yozuvchining so'nggi kunlariga qadar davom etdi. Tarjimon Vafo Fayzullo tomonidan tarjima qilingan otasiga bitilgan maktubda: "Ko'pgina kitoblarimda siz haqingizda yozganman, qalam tebratayotib, ko'ksingizda qilolmaganim-ko'z yosh to'kishni soatlab qo'ymasdim. Bu sizning qattol sanalgalingizdan xalos bo'lishning huzuri edi, o'ylangan, faqat uzoqqa cho'zilgan erkinlik", [4:418]- shunday murojaat qilgan, biroq bu gaplari bilan Kafka padarining ijodiga qanchalar ta'sir ko'rsatganini ham tan

oladi. Brodning so'zlariga ko'ra, maktub egasiga etib borgani yo'q. Frans uni otasiga berib qo'yishni so'rab, onasiga yo'llagan, ammo onasi taskin beruvchi so'zlar ila farzandini avrab maktubni ortiga qaytarib yuborgan edi.

Otasining qudratli, istalgan daqiqada istagan odamni yo'q qilib yuborishga qodir shafqatsiz qiyofasi Kafkani butun umr ta'qib qildi, u otasining norozi qarashidan xayolot olamining ko'rinmas burchaklariga biqinib olardi va xalos bo'lish yo'llarini izlardi. Bu esa asarlaridagi har bir Inson obrazida ko'rinish beradi bu holat tarjimada real aks etgan. "Mana yillar o'tsa hamki, qo'rqinchli tushlarimda bir bahaybat erkakning sharpasi yaqinlashayotganidan uyg'onib ketaman, bu mening otam, oilamizning hukmron boshqaruvchisi, deyarli hech qanday sabasiz, yotgan karavotim oldiga kelib, oyog'imdan sudrab, ayvonga olib chiqarishi mumkin edi; bu bilan men uning ana shunday arziyas bir matohligimni ko'rsatishga urinardi". [4:430] Adibning bolalikdagi otasining zulmidan chekkan iztiroblari izsiz ketmadi. "Evrilish"dagi tarjima tasvirlar aslida yozuvchining boshdan kechirgan sahnalaridan biri ekanligiga shubha qolmaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Kafka hayotining so'nggi kunlariga qadar mana shunday qiynoqlar iskanjasida yashagan. Bunday qiynoqlarning izlari adibning "Och" hikoyasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Yozuvchining mazkur hikoyasi 1924 yilda chiqqan to'rt hikoyani o'z ichiga olgan to'plamda chop qilingan edi. Kafka so'nggi tahrirlarni va vyorstkasini kasalxonada yotganida qilgan, bu paytda adibning sil kasali tobora avj olgandi.

Mazkur asarni Kafka saqlab qolishni istagan edi, qolgan qo'lyozmalarining bir qismini Maks Brodga, ikkinchi qismini so'nggi sevgilisi Dore Diamantga yo'llab, yoqib yuborishni vasiyat qilgandi. Dora yuklangan og'ir vazifani bajara oldi, ammo Brod o'lganning vasiyatiga amal qilolmadi va natijada Insoniyatga Kafkadan "Jarayon", "Amerika" va "Qo'rg'on" romanlari va ko'plab hikoyalariyu maktublari, kundaliklaridagi qaydlar meros bo'lib qoldi. Va bu merosi o'zbek tarjimonlar Mirzaali Akbarov, Vafo Fayzulla, Shahnoza Quvonova tomonidan asliyatdan tarjima qilinmoqda.

"Och" hikoyasining tarjimasi tasvirlari kitobxonni bir seskanib tushishga majbur qiladi, chunki ochlikdan azob chekayotgan odam qafasda boshqalarning qiziqishini tortayotgan edi. U sahnaga ochlik sahnasidagi rolni o'ynash uchun chiqardi, bu o'ziga xos namoyish edi. Qafas - Kafka uchun o'ziga xos timsol, deyarli barcha asarlarida uchraydi. Adib ijodini o'rgangan tadqiqotchilar uni xuddi bosh qahramon (Inson obrazi) uchun qo'yilgan tuzoq, deya ta'riflashadi. Och bilan Dunyo orasidagi kelishmovchilik odamlarni qafasga soqchilar yaqinlashishga qo'ymaganlaridan yuzaga keladi. Tarjimon Shahnoza Quvonova tomonidan tarjima qilingan ushbu hikoyada ba'zan och yashirincha nimadir eb olsa, Dunyoni ranjitardi: "...tungi qorovullar goho ataylab zalning bir burchagida yig'ilib, qarta o'yiniga andarmon bo'lganday ko'rsatishardi, bu bilan Ochning biror nima eb olishi uchun imkon yaratishga urinardilar. Soqchilar uning egani narsasi bor, deb o'ylashardi; qaerdadir biror-bir joyda Och egulik zahirasini yashirib qo'yganiga ishonchlari komil edi. Hech kim Ochga bu rahmdil soqchilarday azob etkazmas edi. Ular sho'rlikni tushkunlikka tushishiga sabab bo'lar va ochlik uning chinakam azobga aylanardi". [12:230]

Bir kuni Ochga nisbatan e'tibor tushadi. Shundan so'ng uni tsirkka ko'chiradilar, u erda odamlar qiziqishining so'nggi ushoqlarini teradilar va alaloqibat Och xususida tamoman unutadilar. Tomashabinlar yo'qligiga qaramay, "ochlik mahorati" ham ancha avval urfdan chiqib ketgan bo'lsa-da, Och qafasini tark etolmaydi, chunki u boshqa hayotda, boshqa rolni qabul qilolmaydi. Bir kuni tsirk boshlig'i qafas bo'm-bo'sh turganiga hayron qoladi va unga yaqinlashib, tanasini ojiz hayot shami zo'rg'agina ilitib turgan Ochni ko'radi. Bu tarjimada xuddi shunday aks etgan.

- Sen haliyam ochmisan? - so'raydi boshliq. - Qachon bu ishingni qo'ymoqchisan?  
- Meni hamma kechirganida, - biroq Ochning so'zlarini qafasga qulog'ini tutib turgan boshliq eshita oldi.

- Albatta, - javob qildi va lablariga barmog'ini tekkizdi va ishchilariga Ochning qanday ahvolga tushib qolganini ko'rsatmoqchi edi. - Biz seni kechiramiz.

- Men hamisha o'zimning ochlikka sabr qila olish qobiliyatim bilan hammani hayratga solishni istardim, - dedi maestro.

- Biz qoyil qoldik senga, - dedi boshliq butun samimiyatini yig'ishga urinib.

- Biroq sizning qoyil qolishingizga hojat yo'q, - javob qildi Och.

- Mayli, u holda biz bunday qilmaymiz. Lekin nega? Nega hayratlanmasligimiz kerak ekan?

- Chunki men och qolishga majburman, boshqa ilojim yo'q.

- Ayt-chi, birodar, buning sababi nima? - so'radi boshliq. - nega ilojsizsan?

- Chunki men, - dedi Och deyarli qurib kichrayib qolgan boshini ko'tarib, qaqshagan lablarini harakatga keltirdi va boshliqning qulog'iga shivirladi, - chunki men hech qachon ta'bimga yoqadigan biror emishni topmayman. Mabodo shunaqa narsa topganimda, o'zimni tiymasdim, ishonimg, bo'kkunimcha erdim, senday va boshqalarday. [12:233]

Xulosa va takliflar (Conclusions/Recommendations). Xullas, o'lim Och uchun qutulish bo'ladi, Dunyo esa o'zining bir mayda zarrasidan ayrilganiga qaramay, uning g'oyib bo'lganiga, hatto e'tibor qaratmasidan yashashda davom etadi. Qafasga esa olomni o'z kuchi va haybati bilan mahliyo qiluvchi yosh va kuchli panterani kiritadilar. Ehtimol, Kafka hayotdan ketishni shunday tasavvur qilgandir: unutilasan va keraksiz bo'lib qolasan. Garchand Kafkaning o'zining qismatiga vafotidan so'ng butkul unutilib, yo'q bo'lish qismati emas, balkim o'limidan keyin o'zni, o'zligini topish nasib etdi. Bu holat hikoya tarjimasida mohirona aks ettirilgan.

### Iqtiboslar/Сноски/References

1. Ulug'bek Hamdamov. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Akadernashr, 2020. - B. 129., 23.
2. Akmal Saidov. Franz Kafka - Telba Dunyoning Dahosi. Davr Press. Toshkent, 2015, - B. 4., 15., 14., 12.
3. Shavkat Karimov. Nemis adabiyoti tarixi. Mumtoz so'z. Toshkent, 2010,- B. 139.
4. Kafka, Frans. Jarayon, Otamga xat: Roman va xat / tarjimon V.Fayzulloh, so'zboshi muallifi X. Do'stmuhammad. - Toshkent.: Sharq, 2015. - 16. B
5. Imre Kertes "Stokgolm ma'ruzasi" Jahon adabiyoti jurnali 2015/8-son. - B.118.
6. Karel'skiy A.V. Avstriyaning liro-mifologik eposi //XX asrda Jahon adabiyoti / L.G. Andreevaning tahriri ostida. M., 2000.
7. Venjamin Valter. Frans Kafka. M., 2000.
8. Zusman V. G. Frans Kafkaning ijodiy olami. N. Novgorod, 1996.
9. Nazar Eshonqul "Franz Kafka" <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/frants-kafka/>. - B. 11.
10. Muhammadjon Xolbekov. XX asr modern adabiyoti manzaralari. Maqolalar toplami. - Toshkent: Mumtoz soz, 2012. - B. 158., 166.
11. Franz Kafka. Das Schlo?- Roman. Fischer Verlag. Frankfurt am Main, 2008. - S. 388.
12. Frans Kafka. Qishloq shifokori va hayotlik chog'idagi boshqa asarlar. - Toshkent: Voris, 2021 - B. 231., 233.